



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNES VA AHOLINING TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH

CREDITATION BY COMMERCIAL BANKS TO SMALL BUSINESSES AND ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES OF THE POPULATION

¹Nematulloyev Suxrob
Sobirovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Bank ishi" kafedrası dotsenti, PhD.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada 2020-2024-yillar davomida O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholining tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ajratilgan bank kreditlari hajmi va ularning tarmoqlar bo'yicha taqsimoti tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida aholiga ajratilgan kreditlar hajmining qisqarish sabablari, iqtisodiy sektorlar bo'yicha kreditlash samaradorligi hamda mavjud tizimdagi nomutanosibliklar aniqlanib, kichik biznes va aholining tadbirkorlik faoliyatini kreditlash bo'yicha bank strategiyalarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi.

Eng. - This article analyzes the volume of bank loans allocated in Uzbekistan during 2020-2024 to support small and medium-sized enterprises (SMEs) and entrepreneurial activities of the population, as well as their distribution across various sectors. The analysis identifies the reasons behind the decline in loan volumes provided to the population, evaluates the efficiency of lending across economic sectors, and highlights existing imbalances in the system. Furthermore, the article develops recommendations aimed at improving banking strategies for financing small businesses and supporting entrepreneurial activities among the population.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ kichik biznes, tijorat banklari, kredit, tadbirkorlik, moliyalashtirish, kredit siyosati, iqtisodiy tahlil.
❖ small business, commercial banks, lending, entrepreneurship, financing, credit policy, economic analysis.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o'rta biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ular nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratishda, balki ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish, iqtisodiy muvozanatni saqlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida kichik biznesni rivojlantirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va

tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan [1].

2020-2024-yillar davomida respublika tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyalashtirish uchun ajratilgan kredit mablag'lari hajmi ortib borgan. Bu holat moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalarining takomillashgani, yangi bank mahsulotlarining joriy etilgani va hukumat tomonidan imtiyozli kreditlash mexanizmlarining keng tatbiq etilishi bilan

izohlanadi. Ayniqsa, oilaviy tadbirkorlik, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar asosida aholi qatlamlari orasida kredit olish faolligi ortgan.

Shu bilan birga, bank kreditlarining sektorlar bo'yicha taqsimoti, ularning samaradorligi hamda aholining kredit resurslarini jalb etish bo'yicha ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2023-yildan boshlab aholiga ajratilayotgan tadbirkorlik kreditlari hajmining kamaygani, ayrim sohalarda kreditlar taqsimotidagi nomutanosibliklar va samaradorlik darajasidagi farqlar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

A.N.Berger, va G.F.Udell kabi iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida kichik biznes subyektlariga moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda kredit risklari, asimmetrik axborot va garov muammolarini tahlil qiladi. Unga ko'ra, kichik biznes subyektlariga kredit berish "munosabatga asoslangan bank xizmatlari" orqali samarali bo'lishi mumkin [2]. O'zbekiston amaliyotida ham tijorat banklari mijoz bilan uzoq muddatli aloqalarga tayanib, kredit portfelini diversifikatsiyalashga harakat qilmoqda.

T. Beck, A. Demirgüç-Kunt va V. Maksimovic o'z tadqiqotlarida kichik biznes subyektlari kreditlardan foydalanishda, moliyalashtirish cheklovlariga ko'proq duch kelishini ta'kidlaydilar [3]. Bu holat O'zbekiston sharoitida ham dolzarb bo'lib, garov talablari va kredit tarixining yetishmasligi sababli mikrofirmalarning moliyaviy imkoniyatlarini cheklaydi.

Jahon banki hisobotlarida kichik biznes subyektlar faoliyatini kreditlash amaliyotini takomillashtirish maqsadida kredit axborot tizimlari, kafolat fondlari va regulyator yondashuvi muhim rol o'ynashi qayd etilgan. O'zbekistonda bu yo'nalishda "Kredit axborot byurosi" hamda "Tadbirkorlikni qo'llab-

quvvatlash jamg'armasi" kabi institutlar aynan shu tavsiyalar asosida shakllantirilgan.

"Micro, Small and Medium Enterprises Finance Gap" nomli tahlilda O'zbekistonda MSE segmentining moliyaviy ehtiyoji 2,5 mlrd. AQSh dollaridan oshishi ko'rsatilgan. Ushbu ehtiyojni to'liq qoplashda tijorat banklarining mavjud moliyaviy resurslari yetarli emasligi, xalqaro kredit liniyalarining jalb etilishi muhim ahamiyat kasb etishi alohida ta'kidlanadi.

X.S.Jo'rayev o'z tadqiqotida kichik biznesni moliyalashtirish jarayonida banklar tomonidan kredit riski, garov siyosati va mijozni baholash metodologiyalari tahlil qilgan. Ayniqsa, yangi tadbirkorlar uchun banklarning garov talablari asosiy to'siqlardan biri sifatida ko'rsatilgan [4].

S.A.Qurbonov esa o'z izlanishlarida davlat jamg'armalari va tijorat banklari o'rtasidagi kooperatsiyaning ahamiyatini yoritadi. Xususan, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida moliyalashtirish jarayonida hukumat tomonidan kafolatlar berilishi va foiz stavkalariga subsidiyalar qo'llanilishi amaliy jihatdan tahlil etilgan [5].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili asosida xulosa qilish mumkinki, kichik biznesni kreditlash masalasi nafaqat xalqaro miqyosda, balki O'zbekiston sharoitida ham dolzarb mavzu sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlar, hukumat siyosatlari hamda real sektor tahlillarida keng yoritilgan. Garchi O'zbekistonda bu yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, moliyaviy inklyuzivlik, kredit sifati, foiz stavkalari va garov mexanizmlariga oid muammolar hanuzgacha mavjudligicha qolmoqda [6]. Shu bois, mavjud ilmiy va amaliy manbalar bank kreditlash siyosatini takomillashtirishda nazariy asos va amaliy yo'nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mavzu bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borishda analitik-taqqoslash, mantiqiy va solishtirma tahlil, ma'lumotlarni guruhlash va

ularni o'zaro taqqoslash orqali statistik qayta ishlash, shuningdek, miqdoriy hamda sifat ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston bank sektorida 2020–2024-yillar davomida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholining tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirish hajmi izchil tarzda o'sdi. 2020-yilda ushbu yo'nalishga jami 48,4 trln. so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2024-yil yakunida bu ko'rsatkich 92,4 trln. so'mga yetdi. Boshqacha aytganda, besh yil ichida kichik biznes va aholiga ajratilgan kreditlar hajmi qariyb ikki baravar oshdi. Sektorlar kesimida kredit taqsimoti ham sezilarli o'zgarishlarga uchradi. 2020-yilda kichik biznes kreditlarining eng katta ulushi sanoat sohasiga

(32 foiz) va savdo-soha xizmatlariga (19 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilga kelib savdo va umumiy ovqatlanish sohasi yetakchi sektorga aylandi (33 foiz), sanoat esa 26 foiz ulush bilan ikkinchi o'rini egalladi. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish ulushi 2020-yildagi 14 foizdan 2024-yilda 16 foizgacha oshgan bo'lsa, qurilish sohasiga ajratilgan kreditlar ulushi 6–8 foiz atrofida bo'lgan. Transport va kommunikatsiya sohasiga yo'naltirilgan kreditlar 2024-yilda umumiy kreditlarning 5 foizni tashkil etdi. Aholiga bevosita tadbirkorlikni boshlash va kengaytirish uchun berilgan mikroqarzarlar hajmi dastlab tez o'sdi: 2020-yilda 3,6 trln. so'm (jami portfelning 7,4 foizi)dan 2023-yilda 9,5 trln. so'mga (13 foiz) yetdi. Biroq 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 6,3 trln. so'mgacha pasayib, jami kichik biznes kreditlaridagi ulushi 7 foiz atrofida kamaydi.

1-jadval

Kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar (tarmoqlar bo'yicha, mlrd. so'm) [7]

Davr	Jami	shundan:						
		Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiy ovqatlanish	Transport va kommunikatsiya	Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	Boshqalar
1	2	3	4	5	6	7	8	9
2020-yil	48 389,7	15 402,1	6 854,7	3 167,7	9 386,0	4 390,6	3 602,1	5 586,5
2021-yil	59 552,1	14 632,7	9 814,5	3 786,4	15 536,9	2 832,0	6 830,0	6 119,6
2022-yil	69 770,3	20 312,1	6 313,2	6 944,2	17 159,9	8 943,0	9 094,4	1 003,6
2023-yil	73 009,4	19 423,4	7 879,4	6 439,6	18 905,2	6 465,5	9 495,2	4 401,2
2024-yil	92 424,8	23 590,0	14 557,5	7 010,3	30 636,7	4 600,8	6 346,5	5 683,1

2020-yilda sanoat va savdo sohalari yetakchi bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda savdo sohasining ulushi keskin oshganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va qurilish kreditlari ham izchil o'sgan, aholi uchun ajratilgan mikroqarzarlar esa 2024-yilda qisqargan.

Yuqoridagi raqamlar O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga asoslanib, kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyalashtirishdagi umumiy tendensiyaning aks ettiradi. Umuman olganda, 2020–2023-yillar davomida kichik biznes loyihalarini kreditlash hajmi izchil ravishda o'sib borgan. Jumladan,

2023-yilda banklar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga jami 160 trln. so'm kredit ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'pdir.

Mazkur kreditlarning muayyan qismi yirik korxonalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, 573 mingdan ortiq kichik biznes loyihalariga 73 trln. so'm miqdorida mablag' ajratilgani ushbu segmentning moliyaviy qo'llab-quvvatlanish miqyosini yaqqol ko'rsatadi.

2023-yilda ajratilgan tadbirkorlik kreditlari tuzilmasi quyidagicha taqsimlangan: yirik biznes — 55 foiz, o'rta biznes — 23 foiz,

kichik biznes — 6 foiz va mikro tadbirkorlik subyektlari — 16 foiz. Ushbu ko'rsatkichlar kichik va mikro tadbirkorlik subyektlari mamlakatdagi umumiy kreditlash tizimida asta-sekin muhim o'rin egallab borayotganini tasdiqlaydi.

2020-2024-yillar davomida O'zbekistonda kichik va o'rta tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida ijobiy siljishlar kuzatilgan bo'lsa-da, kredit mablag'larining tarmoqlar bo'yicha taqsimotida hali ham nomutanosibliklar mavjud. Aholi va mikro tadbirkorlik subyektlari uchun ajratilayotgan kredit hajmining kamayishi moliyaviy inklyuzivlik darajasini pasaytirishi va bandlikni oshirishdagi salohiyatni cheklashi mumkin. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni moliyalashtirishda garov siyosati, kredit tarixi, axborot infratuzilmasi va reguliator yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Shu bois, mavjud muammolarni hal etish va kreditlash strategiyasini takomillashtirish orqali kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Xulosa va takliflar.

2020-2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlari hamda aholining tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Statistik ma'lumotlarga tayanilsa, ushbu besh yillik davrda jami ajratilgan kreditlar hajmi 1,9 barobardan ortiq oshgan bo'lib, bu davlat tomonidan kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralarining faol amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, kreditlashning tarmoqlar

bo'yicha taqsimotida muhim o'zgarishlar yuz bergan. Jumladan, 2020-yilda sanoat va savdo sohalari yetakchilik qilgan bo'lsa, 2024-yilda savdo va umumiy ovqatlanish sohasiga ajratilgan kredit hajmi 30,6 trln. so'mga yetib, ushbu sektor kreditlar jalb etishda mutlaq yetakchiga aylangan. Qishloq xo'jaligi va qurilish sohalariga ajratilgan kreditlar ham sezilarli darajada ortgan, bu esa mazkur sohalarning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Biroq, aholining mikro tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit hajmining 2024-yilda kamaygani bu segmentda moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligidan dalolat beradi. Bu holat aholi bandligini oshirish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. 2023-yilgi kredit tuzilmasi tahliliga ko'ra, ajratilgan kredit mablag'larining 55 foizi yirik biznesga, 23 foizi o'rta biznesga, atigi 6 foizi esa kichik biznesga yo'naltirilgan. Mikro tadbirkorlik subyektlariga esa jami kreditlarning faqat 16 foizi to'g'ri kelgan. Mazkur ko'rsatkichlar kichik va mikro biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hanuz cheklanganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni moliyalashtirish sohasida muhim o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biroq, sektorlar kesimidagi muvozanatni saqlash, aholi mikromoliyalashtirishiga doir imtiyozlarni kengaytirish va kredit resurslarining qulayligi ustida ishlash zarur. Kichik biznesga ajratilayotgan kreditlar ulushini oshirish, ayniqsa mahalliy loyihalar va startaplarni qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni yanada kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-avgustdagi tadbirkorlar bilan ochiq muloqotidagi nutqi (foiz stavkalarini pasaytirish bo'yicha mulohazalar) www.president.uz

2. Berger, A.N. and Udell, G.F. (2006) "A more complete conceptual framework for SME finance", *Journal of Banking & Finance*, 30(11), pp. 2945-2966.
<https://doi.org/10.1016/j.jbankfin.2006.05.008>
3. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A. and Maksimovic, V. (2005) 'Financial and legal constraints to firm growth: Does firm size matter?', *Journal of Finance*, 60(1), pp. 137-177.
<https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.2005.00727.x>
4. Jo'raev, X.S. (2022) 'Tijorat banklari faoliyatida kichik biznesni kreditlash strategiyalari', *Bank ishi va moliya*, 1(2), pp. 45-53.
5. Qurbonov, S.A. (2023) "Kichik biznesni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi", *Iqtisodiy tadqiqotlar*, 2(1), pp. 60-68.
6. Nematulloyev S.S. *Journal of Contemporary Business Law & Technology Cyber Law Blockchain and Legal Innovations* 1(8):16-22 DOI:10.61796/ejcbllt.v1i8.881 License CC BY 4.0
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki – 2023-yilgi Yillik hisobot (bank tizimi rivojlanishi bo'yicha bo'limlar) www.cbu.uz